


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

FarDU. ILMIY XABARLAR – НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК.ФЕРГУ

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

“FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University” jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahriri-yashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

**Bosh muharrir
Mas'ul muharrir**

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

| | | | |
|-------------------------------|-----------------------------------|---------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| FARMONOV Sh. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof. | ZUOGANG PENG (Xitoy) | Janubiy-q'arbiy universitet, b.f.d., prof |
| ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | PANASYUK M (Rossiya) | Qozon federal universiteti, g.f.d, profr |
| AZAMOV A (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof | VALI SAVASH YYELEK (Turkiya) | Ankara Hoji Bayram Veli universiteti fil. |
| SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston) | O'zRFA t.f.d., prof | SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston) | f.d., prof |
| TURAYEV A. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, k-b,f.d., prof | ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesia) | Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof |
| RASHIDOVA S. (O'zbekiston) | O'zRFA k.f.d., prof | SCOTT LEVI (AQSH) | Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, |
| ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston) | OshDU k.f.n., dots | AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston) | Siyosat va xalqaro huquq. |
| TOJIBOYEV K. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, b.f.d., prof | SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya) | Ohio State University, PhD, prof |
| G'ULOMOV S. (O'zbekiston) | O'zRFA akademigi, i.f.d, prof | SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston) | Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti |
| JUMABEKOVA B (Qozog'iston) | b.f.d., prof | | Ataturk University |
| | | | E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti |

Tahririyat kengashi

PEDAGOGIKA BO'YICHA

| | | | |
|------------------|----------------------------------------|---------------|------------------------------|
| EGAMBERDIYEVA T. | FarDU, p.f.d., prof. | DAVLYATOVA G. | FarDU, p.f.n., dots. |
| XONKELDIYEV Sh. | FarDU, p.f.d., prof. | BAYDJANOV B. | FarDU, p.f.n., dots. |
| TOJIBOYEVA H. | O'z Res FA Pedagogika ITI p.f.d. (Dsc) | ABBASOVA N. | FarDU, p.f.f.d., dots. |
| QURBONOVA B. | FarDU, p.f.d. (DSc), prof | GOFUROVA N. | FarDU, p.f.f.d. |
| O'RINOVA N. | FarDU, p.f.n., dots. | URAIMOV S. | FarDU, p.f.f.d., dots. (DSc) |

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Jouranal.fdu.uz

| | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| B.Sh.Shermuhammadov, Q.B.Qurbanova | |
| Oliy ta'limda talabalarни ijtimoiy hamkorlikka tayyorlash metodikasini takomillashtirish..... | 5 |
| T.Эгамбердиева, С.Юлдашев | |
| Исторические корни народных игр | 11 |
| A.A.Turaханов | |
| Факторы формирования психологической устойчивости у будущих военных | |
| руководителей к негативным идеям и социальным угрозам | 17 |
| N.R.Gafurova | |
| Advanced mnemonic techniques for students in language courses | 23 |
| A.N.Qosimov | |
| O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy- | |
| pedagogik asoslari..... | 30 |
| N.R.Gafurova | |
| Developing critical thinking skills through integration of artificial intelligence technologies in | |
| reading and writing at Fergana State University..... | 36 |
| M.M.Yuldashev | |
| O'quvchi organizmining funksional imkoniyati va jismoniy yuklamalarga moslashuvi | 42 |
| Sh.A.Ibragimova | |
| Ishbilarmonlikning ijtimoiy-ma'rifiy va pedagogik jihatdan o'rganilish zarurati va uni | |
| rivojlanish genezisi..... | 46 |
| N.R.Gafurova | |
| Teaching english through film: a contextual approach to language learning..... | 52 |
| D.A.Abduraxmonov | |
| Bo'lajak pedagoglarda kreativ-pedagogik yondashuv asosida kasbiy kompetentlikni | |
| rivojlantirish bosqichlari..... | 56 |
| J.V.Solijonov | |
| Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari | 59 |
| N.T.Mirzamaxmudova | |
| Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning mustaqil ta'lim faoliyati metodikasini | |
| rivojlantirishning metodologik jihatlari..... | 62 |
| N.R.Gafurova | |
| The effect of integrating literature into second language classrooms on student engagement in | |
| higher education institutions..... | 66 |
| D.A.Maxmudova | |
| The role of technology in language teaching: enhancing engagement through digital tools..... | 70 |
| D.O.Gulamova | |
| Imom Al - Buxoriy ma'naviy merosining yoshlarni komillik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati | 76 |
| N.R.Gafurova | |
| The impact of creative writing exercises on language proficiency and self-expression..... | 82 |
| B.M.Artikova | |
| Innovative approaches to developing professional competence in students of technical higher | |
| education institutions (based on the example of the building and construction specialty) | 89 |
| M.N.Haytboyeva | |
| "Rivojlanayotgan sun'iy intellekt davrida ta'lim: ChatGPT imkoniyatlari yordamida | |
| o'qitish va o'rganishni rivojlantirish" | 93 |
| N.U.Jamalova | |
| Vitagen ta'lim texnologiyalarining nazariy asoslari va gumanitar fanlarga tatbiqi | 97 |
| Sh.R.Temirov | |
| Umumta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarini jismoniy rivojlanishida gimnastika | |
| mashg'ulotlarining samaradorligi..... | 101 |
| N.R.Gafurova | |
| The impact of online learning platforms on school education | 108 |



**BO'LAJAK PEDAGOGLARDA MANTIQIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING
ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ
БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ**

**SCIENTIFIC AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING LOGICAL
THINKING IN FUTURE EDUCATORS**

Solijonov Jasurbek Valeriy o'g'li
Farg'onan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari, fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi, fanlararo hamkorlik asosida bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish samaradorligi o'rGANILGAN. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития логического мышления будущих учителей, методика развития логического мышления будущих учителей на основе межпредметного взаимодействия, эффективность развития логического мышления будущих учителей на основе межпредметного взаимодействия. Также были проанализированы сущность и теоретические основы понятия логического мышления.

Abstract

The article studies the theoretical and methodological foundations of developing logical thinking in future teachers, the methodology for developing logical thinking in future teachers based on interdisciplinary cooperation, the effectiveness of developing logical thinking in future teachers based on interdisciplinary cooperation. Also, The essence and theoretical foundations of the concept of logical thinking are analyzed.

Kalit so'zlar: pedagog, mantiqiy tafakkur, nazariy-metodologik asos, kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, didaktik, ijtimoiy ahamiyat, tarbiyaviy xususiyat, fanlararo hamkorlik.

Ключевые слова: педагог, логическое мышление, теоретико-методологическая основа, компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модельный, дидактический, социальная значимость, образовательная функция, междисциплинарное взаимодействие.

Key words: pedagogue, logical thinking, theoretical and methodological basis, competence, improvement, pedagogical, technological, model, didactic, social significance, educational feature, interdisciplinary cooperation.

KIRISH

Bo'lajak pedagoglarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish ta'llimning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvini samarali tatbiq etish, ularning iste'dodi va qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoit yaratishni talab etadi. Mazkur jarayonda pedagoglarning dars jarayoniga an'anaviy yondashuvlardan chetlab faoliyat olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak kadrlarni mustaqil, mas'uliyatlari, ijtimoiy jihatdan safarbarlikka moyil shaxs sifatida shakllantirish ularni muvaffaqiyatlari ijtimoiylashtirish va mehnat bozorida munosib o'rIN topishiga tayyorlash uchun ularda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, o'z faoliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga odatlantirish lozim. Bunday yondashuvni amalga oshirish uchun o'quv-bilish jarayonida talabalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik ahamiyatga ega. Bunda talabalarning moddiy borliq, atrofdagilar va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini o'rganish muhim o'rIN egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish vazifalari turli fanlar doirasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan va bugungi kunda ham bu jarayon davom etmoqda. Jumladan, Alain Lecomte, Bill

Roberts, B.K.Arostic, Disk van Dalen, Dana Richards, D.H.Autor, C.B.Frey, Michał Walicki, E.Brynjolfsson, J.Monk, Y.M.Kolyagin, L.M.Fridman, L.P.Grishenko, M.YE.Drabkina, M.V.Goryainov, M.A.Ivanova, A.G.Kurosh, O.S.Stepanova, A.Abduqodirov, R.Djurayev, U.Inoyatov, O.Musurmonova, X.Ibraimov, Sh.Abdullayeva, D.Ro'ziyeva, B.Abdullayeva, Z.E.Azimova, G.R.Alimatova, S.Alixonov, S.T.Aliqulov, M.Aripov, I.V.Makuxina, X.B.Norbo'tayev, A.A.Salomov, A.CH.Choriyev, D.Sharipovalarning ilmiy-tadqiqot ishlariда mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning falsafiy, psixologik va pedagogik jihatlari o'rganilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bo'lajak pedagoglarda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishni tashxis etishga doir quyidagi eng muhim yondashuvlarni ajratib oldik:

1) shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. Tekshiruv o'z-o'zini anglashning o'ziga xosligi, emotsiyal-irodaviy va kommunikativ sohalarning rivojlanish darajalari bilan bog'liqlikda shaxs rivoji uchun xizmat qiladigan o'zaro aloqador sifatlarning yaxlit tizimini o'rganishga yo'naltirilgan;

2) dinamik yondashuv (o'rganishning uzoq muddat davom etishi, sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqt-vaqt bilan kuzatishlarga murojaat qilish, uning rivojlanishi dinamikasini o'rganish, psixologik to'siqqlarni va uni bartaraf etish vositalarini aniqlash). Dinamik yondashuv asosida diagnostik tanlovdan diagnostik rivojlantirishga o'tish paradigmasini almashtirish bilan shartlangan mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning dinamik nazariyasi yotadi;

3) tekshiruv natijasi sifatida nafaqat insonning umumiyligi va psixik rivojlanish darajasi, umumiyligi va maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi, mantiqiy tafakkurini rivojlantirish darajasini aniqlash, balki uning potensial imkoniyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan shaxsiy rivojlanishini prognoz qilish masalasini tadqiq etishga asoslangan prognostik yondashuv.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqqan holda, mantiqiy tafakkurini rivojlangan talabani aniqlash tamoyillari sifatida quyidagilarni keltirib o'tamiz: - turli axborot manbalaridan foydalanish va uning qobiliyatlarining kengroq doirasini qamrab olish asosida talabaning xulq-atvori va faoliyatining turli jihatlarini baholashning majmuaviy tavsifga egaligi; - identifikatsiya ning uzoq muddatligi (sinaluvchilarni turli vaziyatlardagi xulq-atvorini o'rganish uchun vaqt-vaqt bilan kuzatishlarga murojaat qilish); - talabaning qobiliyatini va qiziqishlariga maksimal darajada mos keluvchi faoliyat sohasidagi uning xulq-atvorini tahlil etish (talabani maxsus tashkil etilgan predmetli-munozarali mashg'ulotlarga, faoliyat sohasiga mos keluvchi turli ish shakllariga jalb etish); - aniq rivojlantiruvchi ta'sirga ega trening metodlaridan foydalanish, talabani psixologik to'siqlardan himoyalash; - faoliyat sohasi bilan bog'liqlikda mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni baholashga ekspertlar va yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish; - real vaziyatlardagi talabaning xulq-atvori baholashda samarali natijalarga erishish imkonini beradigan psixodiagnostik metodlarga taya'nish.

Mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning sifat tavsifini tahlil etishning umumiyligi mezonlar tizimiga muvofiq insonning psixik imkoniyatlari va ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning ma'lum bir turida namoyon bo'lishi bilan bog'liqlikda uning xilma-xil turlarini aniqlash mumkin.

Mantiqiy tafakkuri turlarini aniqlash mezonlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish mumkin: faoliyat turi va psixik rivojlanish sohasi bilan bog'liqlikda; mantiqiy tafakkurini rivojlanganlik darajasiga ko'ra; mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning namoyon bo'lish shakliga ko'ra; faoliyatning xilma-xil turlarining namoyon bo'lish doirasiga ko'ra; yosh davri xususiyatiga ko'ra.

1. Faoliyat turiga ko'ra mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning beshta turini ajratib ko'rsatish mumkin: amaliy, nazariy (bilish faoliyatiga doir), badiiy-estetik, kommunikativ va ma'naviy-axloqiy. Shuningdek,, psixik rivojlanish sohasiga ko'ra mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning intellektual, emotsiyal va motivatsion-irodaviy turlarga tasniflash mumkin. Intellektual soha sensor-motorli, fazoviy-vizual, tushunchali-mantiqiy darajalarda namoyon bo'ladi. Emotsional soha bilan bog'liqlikda mantiqiy tafakkurini rivojlantirish emotsional ta'sir va emotsional kechinma darajalarda aks etadi. Motivatsion-irodaviy soha doirasida mantiqiy tafakkurini rivojlantirish xohish-istik, maqsadga yo'naganlik va o'y-xayol darajalarini o'zida ifoda etadi.

Mantiqiy tafakkurini rivojlangan talabaning o'quv faoliyat usullari uning sifat va samaradorligini ta'minlash imkonini beradi. Ana shu sababli faoliyat samaradorligiga erishishning uchta asosiy darajasi ajratib ko'rsatiladi: biror-bir vaziyatga doir qarorlarni qabul qilishda yangi

PEDAGOGIKA

faoliyat usullarini izlab topish va foydalanish; fan sohasini chuqur o'zlashtirish asosida faoliyatning yangi cho'qqisini egallash; faoliyatni tezda o'zlashtirish va uni muvaffaqiyatli bajarish.

2. Mantiqiy tafakkurini rivojlanganlik darajasi mezoniga ko'ra uni aktual va potensial mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga tasniflash mumkin.

Aktual mantiqiy tafakkurini rivojlantirish – bu yosh va ijtimoiy me'yorlar bilan taqqoslaganda biror faoliyat va fan sohasini yuqori darajada o'zlashtirganligida namoyon bo'ladigan talaba shaxsining psixik xususiyatlari tavsifi. Mazkur holatda nafaqat o'quv sohasi, balki faoliyatning xilma-xil turlarining keng sohasi bilan bog'liqlikda so'z yuritiladi.

Potensial mantiqiy tafakkurini rivojlantirish – bu talaba faoliyatining biror sohasidagi yutuqlari uchun faqat ma'lum psixik imkoniyatlarini belgilab beruvchi psixik xususiyatlari tavsifi bo'lib, uning hamma vaqt ham o'z imkoniyatlarini ko'rsatib bera olmasligi bilan xarakterlanadi. Mazkur salohiyatning rivojlanishi maqbul shart-sharoitlar (oiladagi qiyinchilik, motivatsiya ning yetishmasligi)ning mavjud yoki mavjud emasligiga bog'liqdir.

3. Mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning namoyon bo'lish shakli mezoniga ko'ra ochiq va yopiq ko'rinishdagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

4. Faoliyatning xilma-xil turlarining namoyon bo'lish doirasiga ko'ra mantiqiy tafakkurini rivojlantirish umumiy va maxsus turlarga ajratiladi.

Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirish faoliyatning xilma-xil turlariga munosabat bo'yicha namoyon bo'ladi va uning samaradorligining asosi sifatida yuzaga chiqadi. Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning psixologik yadrosi shaxsning emotsional, motivatsion va irodaviy sifatlari asosiga qurilgan aqqli qobiliyatlarda aks etadi.

Umumiy mantiqiy tafakkurini rivojlantirish voqelikni tushunish, faoliyat sohasiga chuqur emotSIONAL va motivatsion jihatdan jalb etilganlikni aniqlab beradi.

Maxsus mantiqiy tafakkurini rivojlantirish faoliyatning aniq sohasida o'z ifodasini topadi va faqat alohida faoliyat sohasidagi (musiqa, tasviriy san'at, sport va h.k.) munosabatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

5. Yosh davrlari rivojining o'ziga xosligi mezoni bo'yicha mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni erta va kech namoyon bo'lishini ajratib ko'rsatish mumkin.

XULOSA

Mazkur holatda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning erta yoki kech namoyon bo'lishini hal qiluvchi ko'rsatkichi sifatida talabaning psixik rivojlanish sur'atini ta'kidlab o'tish lozim. Shuning uchun ushbu davrda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning yorqin namoyon bo'lmasligi uni inkor qilishni talab etmaydi.

Mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning yuqorida sanab o'tilgan mezonlari talabalar mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni baholash muammosining murakkabligi va ko'p omilli ekanligidan dalolat beradi va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishni tashxis etish har tomonlama chuqur, majmuaviy tavsifga ega bo'lishi hamda turli darajalarda va bir nechta bosqichlarda amalga oshirilishi lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Божович Л.И. Отношение школьников к учебе как психологическая проблема // Божович Л. И. Проблемы формирования личности. -М: "Институт практической психологии", Воронеж: НПО "МОДЭК", 1995.
2. Коляда Е.П. Развитие логического мышления учащихся-подростков на основе межпредметных задач: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: (Математика, информатика). Саратов: из-во Сарат. гос. ун-т им. Н. Г. Чернышевского, 1996.
3. Миркосимова М.М. Талабаларда аналитик тафаккурни ривожлантириш технологияси// НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2020 йил 4-сон.
4. Никольская И.Л. Привитие логической грамотности при обучении математике: Автореферат дисс...канд. пед. наук-М., 1973.
5. Новейший философский словарь. – М., Наука, 1999.
6. Педагогика. Энциклопедия. I жилд / тузувчилар: жамоа. – Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2015.
7. Усмонова Э.З. Талабаларда мустақил тафаккурни қандай шакллантириш мумкин? – Т.: ТДПУ, 2000.